

**IJODIY SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA DARSLARINING
ROLI: YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM STRATEGIYASI ASOSIDA
YONDASHUV**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika
Universiteti 1-kurs magistranti
Zokirova Sevara Izzatillo qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, "O'zbekiston–2030" strategiyasi hamda boshqa ilmiy qo'llanmalar asosida musiqa madaniyati fanining o'qitilishiga e'tibor qaratilgan. Maqolada musiqa darslarining nafaqat madaniy-estetik tarbiyada, balki o'quvchilarda ijodiy tafakkur, estetik did va emotsiyon ongni shakllantirishdagi beqiyos o'rni tahlil qilinadi. Shu bilan birga, musiqa darslari orqali o'quvchilarni erkin fikrashga, innovatsion yondashuvga va badiiy-estetik qadriyatlarni anglashga yo'naltiruvchi metod va vositalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: harakatlar strategiyasi, musiqiy meros, estetik dunyoqarash, innovatsion metod, individual yondashuv.

**THE ROLE OF MUSIC LESSONS IN DEVELOPING CREATIVE
POTENTIAL: AN APPROACH BASED ON THE NEW UZBEKISTAN
EDUCATION STRATEGY**

*Zokirova Sevara Izzatillo qizi
1st-year Master's student at Nizami
Tashkent State Pedagogical University*

Abstract: This article focuses on the teaching of the subject Music Culture within the framework of educational reforms implemented under the New Uzbekistan Development Strategy, the "Uzbekistan–2030" Strategy, and other academic sources. The paper analyzes the invaluable role of music lessons not only in cultural and aesthetic upbringing, but also in shaping students' creative thinking, aesthetic taste, and emotional awareness. It also discusses the methods and tools that guide students toward independent thinking, innovative approaches, and the understanding of artistic and aesthetic values through music education.

Keywords: development strategy, musical heritage, aesthetic worldview, innovative method, individualized approach.

РОЛЬ УРОКОВ МУЗЫКИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА: ПОДХОД НА ОСНОВЕ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАНИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

*Зокирова Севара Иззатилло кизи
 Магистрант 1-го курса Ташкентского
 государственного педагогического
 университета имени Низами*

Аннотация: В данной статье рассматривается преподавание предмета Музыкальная культура в контексте реформ в системе образования, реализуемых в рамках Стратегии развития Нового Узбекистана, стратегии "Узбекистан–2030", а также на основе других научных источников. Анализируется уникальная роль уроков музыки не только в культурно-эстетическом воспитании, но и в формировании у учащихся творческого мышления, эстетического вкуса и эмоционального сознания. Также рассматриваются методы и средства, направленные на развитие самостоятельного мышления, инновационного подхода и понимания художественно-эстетических ценностей через музыкальное образование.

Ключевые слова: стратегия развития, музыкальное наследие, эстетическое мировоззрение, инновационный метод, индивидуальный подход.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarda mustaqil fikrlash, estetik did, madaniy ong va ijodiy salohiyatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslari bu yo‘nalishda muhim rol o‘ynaydi. Zero, musiqa san’ati – bu nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki o‘quvchilarning tasavvuri, tafakkuri, emotsional olami va ijodiy imkoniyatlarini boyituvchi kuchli pedagogik vositadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikri mazkur mavzuning dolzarbligini yana bir bor ta’kidlaydi. “Biz yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashimiz kerak. Buning uchun ularning qalbiga san’at, adabiyot, musiqa orqali kirishimiz zarur.” (Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 30-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidan)

Musiqa madaniyati darslari orqali o‘quvchilarda ijodiy salohiyatni rivojlantirish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Musiqa inson ma’naviyatining muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat shaxsning hissiy va estetik dunyosini boyitadi, balki ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, musiqiy ta’lim va

madaniyatni chuqur o‘rganish va uni ta’lim tizimida samarali qo‘llash dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

XXI asrda jamiyatning har tomonlama rivojlanishi, axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi, globallashuv jarayonlari inson intellektual salohiyatini yanada oshirishni talab qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim tizimida ijodiy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, estetik dunyoqarashga ega, barkamol shaxsni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, musiqa madaniyati darslarining o‘quvchilarda ijodiy salohiyatni rivojlantirishdagi o‘rni beqiyosdir.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy poydevorlaridan biri sifatida ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, yosh avlodni intellektual va ma’naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish vazifasi ilgari surilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan 1.5-g‘oya — “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish” — aynan shu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo‘nalishlardan biridir.

Ushbu g‘oya doirasida belgilangan qator maqsadlar, jumladan:

- musiqa va san’at ta’limi sifatini oshirish,
- ijodiy va iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish,
- zamonaviy san’at mакtablari faoliyatini rivojlantirish,
- milliy madaniyat va merosni targ‘ib etuvchi ta’lim dasturlarini kengaytirish

musiqa madaniyati fanining ta’lim tizimidagi ahamiyatini oshiradi va uning ijodiy salohiyatni rivojlantirishdagi rolini yanada kuchaytiradi.

Musiqa darslari orqali o‘quvchilarda nafaqat badiiy-estetik dunyoqarash, balki erkin fikrlash, o‘zini ifodalash, milliy qadriyatlarga hurmat va badiiy ijodga qiziqish singari sifatlar shakllanadi. Bu esa Yangi O‘zbekistonning zamonaviy, raqobatbardosh va ma’naviy yetuk avlodini tarbiyalash yo‘lida muhim qadamlardan biridir. Shu boisdan ham strategiyada san’at va madaniyat sohasiga doir islohotlarning asosiy qismi ta’lim bilan chambarchas bog‘liq tarzda belgilangan.

O‘quvchilarda ijodiy salohiyatni rivojlantirishda musiqa fanining tutgan o‘rni zamonaviy pedagogik yondashuvlar, fanlararo integratsiya va innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashgan holda ko‘zga tashlanmoqda. Ushbu jarayon ta’limdagi sifat va samaradorlikni oshirib, har bir o‘quvchining individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilanganidek, ta’lim dasturlarida milliy musiqiy meros, xalq ijodi, qadimiy maqom san’ati va zamonaviy musiqiy yo‘nalishlarning uyg‘un tarzda talqin qilinishi yoshlarning estetik didini o‘stirishda muhim vosita hisoblanadi.

Shu ma'noda, maktab o'quvchilari uchun musiqa darslari nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy, ijtimoiy-psixologik va ruhiy rivojlanishni ta'minlovchi vosita sifatida qaralmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "San'at va madaniyat – bu millat qalbi, yoshlar tarbiyasining kalitidir." Ushbu tamoyil asosida musiqa fanining o'qitilishi jamiyat taraqqiyoti, yoshlar ma'naviyati va ijodkorlik salohiyatini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Mazkur strategiyada san'at orqali yoshlarning estetik didini shakllantirish, ularni vatanparvarlik, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, eng muhimi — ijodiy salohiyatini to'laqonli olib berish muhim vazifalar sifatida belgilanganligiga isbotni M.Q. Yo'ldoshevning asaridagi quyidagi fikrlarda ham ko'rishimiz mumkin:

"Har qanday fanni, xususan san'at va musiqa yo'nalishidagi mashg'ulotlarni interfaol va zamonaviy texnologiyalar asosida olib borish nafaqat bilim, balki o'quvchining ongli tafakkuri va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi."

Shundan kelib chiqib, musiqa darslarida faqat nazariy bilim berish emas, balki talabalarning mustaqil ijod qilish, o'z g'oya va hissiyotlarini musiqiy obrazlar orqali ifodalashga yo'naltirilgan metodlar qo'llanishi lozim. Bunday yondashuv o'quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol ijodkor shaxsga aylantirish imkonini beradi.

Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida nazarda tutilganidek, har bir o'quvchi individual yondashuv asosida o'zining iqtidorini ochish huquqiga ega. Bu borada musiqa darslari bolalarning emotsional holatini ifoda etishga, hissiy dunyosini boyitishga va shaxsiy qiziqishlarini rivojlantirishga eng qulay maydon bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, ijodiy salohiyatning shakllanishida san'at, xususan musiqa ta'limining o'rni beqiyosdir. Musiqa darsi — bu nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki bolaning emotsional, intellektual va ijtimoiy jihatdan har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omildir. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir.

Taniqli pedagog va musiqashunos olma G.A. Serova o'zining "Musiqiylar ta'lim orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish" (Toshkent, 2018) nomli ilmiy-metodik qo'llanmasida shunday deydi:

"Har bir bola musiqaga nisbatan tug'ma qiziqishga ega bo'lib tug'iladi. Pedagogning vazifasi esa – bu qiziqishni ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali ijodiy ifoda darajasiga olib chiqishdir."

Ushbu fikrlar "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 1.5-maqsadi — Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish — yo'nalishida ilgari surilgan vazifalar bilan uyg'unlikda ko'rishimiz mumkin. Xususan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ushbu bandda yoshlarning estetik didi, milliy

qadriyatlarga hurmati va ijodiy tafakkurini rivojlantirish madaniyat va san'at orqali amalga oshirilishi kerakligi ko'zda tutilgan.

Shu sababli, musiqa darslarida o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etish, ularning musiqiy didini va ifoda imkoniyatlarini kengaytirish, ularni o'z g'oyasini musiqa orqali erkin ifodalashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda improvizatsiya, milliy musiqa namunalarini zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish, boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan yondashuvlar orqali ijodiy tafakkurni shakllantirish samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

G.A. Serovaning ta'kidicha, ijodiy salohiyatni ochishda musiqa o'qituvchilari an'anaviy metodlar bilan cheklanmasligi, balki zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar, vizual va audiovizual vositalardan keng foydalanishi lozim. Bu esa o'quvchini nafaqat tinglovchi, balki faol ijodkor sifatida o'qitish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimini isloq qilish, ayniqsa, ijodkor, erkin fikrlovchi va milliy qadriyatlarga sodiq avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, musiqa ta'limining bugungi kundagi roli yanada ortib bormoqda. Musiqa fanining o'quv jarayonidagi o'rni faqat estetik tarbiya vositasi sifatida emas, balki o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida ko'rilmoxda. Ya'ni musiqa darslarini faqatgina "fan" sifatida emas, balki shaxsiy kamolot va ijodiy salohiyatni rivojlantiruvchi kuchli vosita sifatida ko'rish lozim. Bu borada ta'lim siyosatidagi islohotlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar va ilmiy-metodik manbalar uyg'unligida amalga oshiriladigan harakatlarga kutilgan natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 30-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidan
2. lex.uz sayti, PF-158-son farmoni
3. M.Q. Yo'ldoshev. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar". Toshkent, 2021.
4. G.A. Serova. "Musiqiylar ta'lim orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish". Toshkent, 2018.